

Bugungi globallashuv asrida har qaysi inson, har qaysi kasb egasining o'z malakasi va saviyasini oshirishi uchun qandaydir mafkuraviy to'siq va cheklashlar qolmaganini barchamiz yaxshi bilamiz. Gap faqat o'qib-o'rganishdan, izlanishdan tortinmaslik, o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, bu yo'ldan qat'iyat bilan ilgarilab borishga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom KARIMOVning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan bayram tabrigidan

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:26 (66983)

2014-yil

30-iyun



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Yaqinda Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 42-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi E'zozabonu Zokirjonova Isroilning Ashdod shahrida badiiy gimnastika bo'yicha 9 yoshlilar o'rtasida o'tkazilgan III xalqaro musobaqada 1-o'ringa sazovor bo'ldi.

OAV: SHARAF VA MAS'ULIYAT

Kuni kecha poytaxtimizdagi «Turkiston» saroyida 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda senatorlar, deputatlar, turli vazirlik va idoralar vakillari, noshirlar, matbaachilar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy o'quv yurtlari ustoz-murabbiylari, talabalar ishtirok etdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom KARIMOVning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan bayram tabrigini Prezidentning Davlat maslahatchisi X.SULTONOV o'qib eshittirdi.

Shuningdek, tadbirda O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan tashkil etilgan «Yilning eng faol jurnalisti – 2013» respublika ko'rik-tanlovining g'olib va sovrindorlari taqdirlandi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining ommaviy sport targ'iboti bo'yicha faollik ko'rsatgan jurnalistlarga diplom va sovg'alari topshirildi.

San'at ustalari va yosh ijrochilar ishtirokidagi konsert dasturi barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

O'ZBEKISTON - ISTE'DODLAR MAMLAKATI

7-bet



OQILA, ODOBLI, ORASTA QIZLAR

3-bet

Davlatimiz rahbarining 2014-yil 6-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hamda «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi ijrosi doirasida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi tashabbusi bilan qator mutasaddi tashkilotlar hamkorligida ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

«KAMOLOT»CHILAR TASHABBUSKOR

Futbol bo'yicha an'anaviy «Kamolot» kubogi» respublika tumirining tuman (shahar) va viloyat bosqichlarida mamlakatimiz bo'ylab 1360 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejlardan jami 23 ming nafardan ortiq o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi.



Joriy yilning 15-may kuniga qadar hududiy bosqichda 193 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 2,9 ming nafar o'quvchilari qatnashishdi.

Musobaqaning 21-maydan 4-iyungacha qadar o'tkazilgan hududlararo mintaqaviy bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan beshta jamoa yakuniy bosqichda o'zaro kuch sinashdi.

«Paxtakor» markaziy stadionida Jizzax tuman maishiy xizmat va iqtisodiyot hamda Toshkent shahar Olmazor politexnika kasb-hunar kolleji jamoalari o'rtasida turnirning final uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Musobaqaning ochilishida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi raisi Bahodir G'aniyev yurtimizda yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, sport bilan muntazam shug'ullanishi, iste'dodini namoyon etishi uchun barcha shart-sharoit yaratilayotganini ta'kidladi.

Qizg'in va murossasiz o'tgan uchrashuvda Olmazor politexnika kasb-hunar kolleji jamoasi 3:1 hisobida g'alaba qozondi va «Kamolot» kubogi-ni qo'lga kiritdi.

– Kubok sohibiga aylanganimizdan xursandmiz, – deydi jamoa hujumchisi Abduvohid Abdukurimov. – Turnir davomida hech bir g'alabaga osonlikcha erishilgani yo'q. Ayniqsa, final uchrashuvida stadiona yig'ilgan ko'p ming sonli ishqibozlarning ko'z o'ngida to'p surish har bir o'yinchini hayajonga soldi. Biroq jamoamizdagi ruhiy tayyorgarlik, o'zaro hamjihatlik, g'alabaga bo'lgan ishonch bizni yuksak marra tomon yetakladi.

Yaqinda «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondining Tibbiy-ijtimoiy markazida Koreya Respublikasining In Xa universiteti gospiatali malakali shifokorlari aholini umumiy chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazdi.

BOLALAR SOG'LOMLASHTIRILADI

Istiqlol yillarida fond tomonidan Xorijiy hamkor tashkilotlar bilan birgalikda hukumatimiz qarorlari, davlat dasturlari ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimizdagi bemor va nogiron bolalar sog'lomlashtirilmogda. Bu yo'lda «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi Germaniyaning «Friedensdorf International», Koreya Respublikasining «Save the children» xalqaro fondi, Koreya xalqaro sog'liqni saqlash KOFIH fondi, In Xa va Pundan Cha universitetlari bilan samarali hamkorlik qilib kelmoqda.



– Har gal O'zbekistonga kelganimda, mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlardan hayratga tushaman. Zamonaviy uslubda bunoyd etilgan, zarur tibbiy asbob-uskunalar hamda malakali mutaxassislar bilan ta'minlangan tibbiyot markazlari yurtingiz aholisi salomatligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda, – deydi In Xa universiteti gospiatalining nefrologi, professor Song Jun Ho.

Rejaga muvofiq, koreyalik shifokorlar Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumanidagi «Ariran» saxovat uyi hamda Navoiy xalqaro aeroporti binosida ham aholini tibbiy tekshiruvdan o'tkazdi.

S. TURSINOV

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati markaziy Kengashida «Toza qo'llar!» loyihasi yakuniga bag'ishlangan anjuman bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahridagi kasb-hunar kolleji va akademik litseylarining targ'ibotchi guruhlari faollari ishtirok etdi.

Anjumanda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar navqiron avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol, mamlakatimizning chinakam tayanchi va suyanchi etib tarbiyalashga xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan joriy yil aprel – iyun oylari davomida amalga oshirilgan «Toza qo'llar!» loyihasida 16 mingdan ziyod yigit-qizlar ishtirok etgani diqqatga sazovor. Tadbir doirasida mamlakatimizdagi barcha mahalla, maktab, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlari va «Kamolot» YOIH boshlang'ich tashkilotlarida davra suhbatlari, konferensiyalar, muloqot va seminarlar o'tkazildi. «Tengdosh – tengdoshga» tamoyili asosida tashkil etilgan tadbirlarda yoshlarda tibbiy madaniyatni oshirish, yuqumli kasalliklarning oldini olish borasida tavsiyalar berildi.

– Biz, targ'ibotchilar dastlab maxsus kurslarda sog'lom turmush tarzi borasidagi bilim va ko'nikmamizni oshirib, joylarda o'tgan uchrashuvlarda bu tushunchalarni tengqurlarimizga yetkazdik, – deydi Toshkent mehmonxona xo'jaligi kasb-hunar kolleji o'quvchisi Nodir Abdug'aniyev. – Loyiha yoshlarning tibbiy madaniyatini oshirish bilan birga, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir navqiron avlodni kamolga yetkazishga xizmat qiladi.

Tadbirda tibbiy-ijtimoiy jabhada amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida davlat jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalari hamkorligini yanada kengaytirish, aholi, xususan, yoshlarning tibbiy savodxonligini yuksaltirishga yo'naltirilgan targ'ibot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish borasidagi vazifalar xususida fikrlashildi.

J. MATYOQUBOV

O'ZBEKISTONNING YETTI MO'JIZASI

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi bilan hamkorlikda «O'zbekistonning yetti mo'jizasi» shiori ostida o'tkazilgan Respublika ijodiy ishlar tanlovida talaygina iqtidor egalarini uchratdik.



Yurtimizdagi muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalar va jannatmonand tabiatimizni sevish, yosh avlod ongida bundan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan ushbu tanlovda umumta'lim maktablarining 5–9-sinf o'quvchilari hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak a'zolari fotosurat, insho va tasviriy san'at yo'nalishlari bo'yicha o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazishdi.

To'rt bosqichda o'tkazilgan ko'rik-tanlovning quyi bosqichlarida o'ttiz mingga

yaqin umumta'lim maktab o'quvchilari va «Barkamol avlod» bolalar markazlarining to'garak a'zolari ishtirok etishgani tanlovga bo'lgan qiziqish yildan yilga o'sib borayotganini ko'rsatdi.

– Ushbu ko'rik-tanlovda men insho yo'nalishi bo'yicha ishtirok etdim. «O'zbekistonning yetti mo'jizasi» mavzusidagi ijodiy ishimga o'lkamizning diqqatga sazovor maskanlari, qutlug' qadamjolar, ona zaminimiz tuprog'ida pishib yetiladigan sarxil mevalar haqidagi o'z taassurotlarimni bayon qildim. Bugungi rag'bat meni kelgusida o'z ustimda yanada ko'proq izlanishimga turtki bo'ladi, degan umiddaman, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Shumanay tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Nargiza Ayapova.

Tanlov yakunida har bir yo'nalish bo'yicha g'oliblar aniqlanib, ularga tadbir tashkilotchilarining diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Mahmudjon AZIMOV

OQILA, ODOBLI, ORASTA QIZLAR

Qizlarjon! Kecha jajjigina edingiz. Sochlaringizni jamalak o'rib, arg'imchoq uchib yurardingiz. Ovunchog'ingiz qo'g'irchoq edi...

Bugun esa bo'yingiz cho'zilib, ancha ulg'ayib qoldingiz. Onajoningizda dastyor bo'lib, qo'lidan yumushini oldingiz.

– Voy, biram aqlli, odobli, chiroyli qiz bo'libdiki, – deya ortingizdan havas bilan boqishyapti qo'ni-qo'shnilar, tanish-bilishlar...

Ayni ta'til kunlarida «Orasta qizlar davrasi» to'garagiga a'zo bo'lsangiz, fikringizni charxlab, aqlan to'lsangiz, bu kabi fazilatlaringiz yanada ortadi.

Xabaringiz bor, o'tgan yili O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Respublika «Mahalla» xayriya moat fondi tashabbusi bilan yurtimizdagi barcha mahallalar qoshida «Orasta qizlar davrasi» to'garaklari tashkil qilingan edi. Mahalla qizlarini Vatanga muhabbat, milliy, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va yuksak odob-axloq tamoyillari asosida tarbiyalash, ongi va qalbini g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish, ularda bugungi ezgu islohotlar, dolzarb muammolarga nisbatan faol munosabatni shakllantirish, shuningdek, qizlarimizda shaxsiy gigiyena, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning



ekologik va tibbiy madaniyatini yuksaltirish, oilaning muqaddasligi, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi va erta nikohlarning salbiy oqibatlarini tushuntirish maqsadida tashkil qilingan bunday to'garaklar faoliyati bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. To'garak a'zolari o'rtasida o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlar esa qizlarga o'rganmalarini yana bir bor sinovdan o'tkazish imkonini berdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'tkazilgan «Orasta qizlar davrasi» ko'rik-tanlovlari uch bosqichda tashkil etildi.

Kuni kecha poytaxtimizning Yoshlar ijod saroyida «Orasta qizlar davrasi» ko'rik-tanlovining hududiy bosqich g'oliblari o'rtasida «Mahallaning eng orasta qizlari» Respublika forumi o'tkazildi. Bellashuvning

dastlabki bosqichlarida ishtirok etgan 50 mingga yaqin qizlar orasidan saralab olingan 193 nafar eng faol, zukko, g'oliba qizlar (har bir tuman yoki shahardan bir nafardan) 14 ta jamoa tarkibida mazkur forumda ishtirok etishdi. Poytaxt tumanlarida tashkil qilingan «Orasta qizlar davrasi» to'garagi a'zolari tayyorlab kelgan ko'rgazmani katta qiziqish bilan tomosha qilishdi.

Forum ishtirokchilari oila muqaddasligi, sarishtalik, ozodalik va salomatlik, yurtimizda joriy etilgan 12 yillik ta'lim tizimining samaradorligi, muomala, kiyinish madaniyati, oila, odob-axloq me'yorlari, xonadonlar, ko'chalar, mahallalar obodligi, milliy an'ana va udumlarimizning mazmun-mohiyatiga oid bilimlarini sahna ko'rinishlari orqali namoyish etdilar. G'oliblar homiylar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

– Forumdan juda katta taassurot oldik, – deydi farg'onalik ishtirokchilar. – Endi olgan bilim va ko'nikmalarimizni «Tengdosh – tengdoshga!» tamoyili asosida mahalladagi dugonalarimizga ham o'rgatamiz. Ular orasida ma'naviy sog'lom muhitni qaror toptirishga hissa qo'shamiz.

Orasta qizlarimizning ezgu maqsadlaridan quvondik. Zero, ona Vatanning faxri sanalgan oqila, faol, zukko, bilimdon qizlarimiz safi kengaysa, jamiyat ham gullab-yashnayveradi.

Feruza JALILOVA



Zubayda MAMATQULOVA olgan suratlar

SHIFOKOR MASLAHATI

ME'YOR BO'LGANI YAXSHI

Yoz faslida ko'pchilik o'quvchilar ona tabiat quchoq'ida hordiq chiqarib, quyosh nurlaridan bahra olishadi. Ammo quyoshda toblanishning ham o'z qoidalari bor. Bu haqda poytaxtimizdagi 16-shahar kasalxonasi shifokori Gulnora RAHMUNOVA bizga quyidagilarni so'zlab berdi.

Tabiiyki, ko'pchilik yoz kunlarida chiniqish maqsadida o'zini o'tob nurida toblaydi. Ochiq tanaga Quyosh nurlarining tik tushishi natijasida badan haddan tashqari qizib, o'tob urishi ta'sirida organizmda moddalar almashinuvi mutanosibligi buziladi.

Bu holatda shifokor yetib kelgunicha tana harorati 38–40 darajaga cha ko'tarilgan bemorni soya-salqin joyga olib, boshiga sovuq suv solingan shisha idish qo'yish, ustiga esa ho'llangan sochiq yopish hamda salqin ichimlik (yaxna ko'k choy, sharbat) ichirish zarur.

Aziz farzandlarimiz shuni

unutmasliklari kerakki, tabiat qo'yniga borganda, ustlariga yengil, havoni yaxshi o'tkazuvchi kiyimbosh kiyishlari darkor. Issiq kunda choy va mevalardan tayyorlangan sharbatlar iste'mol qilish organizmda suv, mineral va tuzlarning muvozanatini saqlaydi. Bundan tashqari, jazirama o'tob nurida suv havzalari bo'yida uzoq vaqt suv va havo vannalarini qabul qilishda ehtiyot bo'lish darkor.

Quyoshda toblanish ertalabki soat 10–11, kechki soat 17–18 da o'n, o'n besh daqiqadan oshmasligi kerak.

Eng muhimi, bolalarning Quyosh nurlari tik tushadigan yerlarda kamroq bo'lgani maqsadga muvofiqdir.

BONU yozib oldi



Farg'ona shahrining Qirg'uli shaharchasidagi «Kimyogar» yoshlar madaniyat markazida «Sog'lom bola yili» Davlat dasturiga asosan, bolajonlar uchun bayram tadbiri o'tkazildi. Tadbirga iqtidorli bolalar, Mehribonlik uyi, maxsus maktablar tarbiyalanuvchilari, kam ta'minlangan oilalar farzandlari taklif etildi.

BOLAJONLARGA SHODLIK ULASHILDI

Yozgi amfiteatrda viloyatning xushovoz xonandalari kuylagan qo'shiqlar, raqqosalar ijro etgan dilrabo raqslar bayram ishtirokchilariga shodlik ulashdi. Ayniqsa, jajji iste'dod egalarining chiqishlari bolajonlar olqishiga sazovor bo'ldi.

Bayramda teatrlashtirilgan tomoshalar, bolalar ishtirokida turli qiziqarli o'yinlar, bellashuvlar tashkil etildi. Turli attraksionlar bolajonlar xizmatida bo'ldi.

Shu kuni bilimlar bellashuvlari, fan olimpiadalari g'oliblari, turli sport musobaqalari va ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etgan iqtidorli yoshlarga viloyat hokimligi, xalq ta'limi boshqarmasining faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Farg'ona viloyati

Har gal tug'ilib o'sgan qishlog'imga borsam, bolalikning beg'ubor xotiralari ummoniga g'arq bo'laman. Nazarimda, umrimning eng mazmunli onlari bolalikda kechgandek tuyuladi. Har bir so'zi ibrat bo'lgan ustozlarim nazdida o'zimni doimiy qarzdordek his etaman.

Qishlog'imning suyuqli ko'chalarida miriqib yayov kezaman. Nogoh xayolimga biz bolalarning yozgi ta'tilda jonimizga oro kiradigan Xurramboy ko'li keladi. Saratonning jazirama kunlarida tuproqning qaynoq taftiga bag'rimizni bosib, o'zimizni ko'lga otardik. Biz uchun go'yo bunday orombaxsh makon dunyoning hech bir go'shasida topilmaydigan tuyoq. Kichikintoy ukalarimizning xarxashasi ham, albatta, ko'lga borish haqida bo'lardi. O'shanda ko'l bahona katta xato qilganim yodimda. Ukam Ma'murjonga: «Kel, sochingni olib qo'yay, keyin seni Xurramboyning ko'lga cho'milishga olib boraman», dedim. Ukam rozi bo'ldi. Lekin ko'lga ilk bor ustara olgan havaskor sartarosh bo'lganim bois, ustaramning izidan qip-qizil qon sizib chiqardi. Ukamning yarim sochini olguncha uning boshiga hisobsiz «paxta» ekdir. Ishim yakun topmay turib, otamning yuzimga tushirgan tarsakisidan hushyor tortdim. O'zim ham shuni kutib turgandek ustarani tashlab qochdim...

Aqlimni tanigach, bildimki, qishlog'imizdan chiqqan ilk o'qituvchi Xurram Yunusov biz cho'miladigan anhordan tom qurish uchun tuproq olib, anhorni ko'lga aylantirgan ekan. O'sha-o'sha ko'l muallimning nomida

BOLALIKNING BITMAS DOSTONI



qoldi. Ko'l baribir boshqacha edi-da. Bugun yana bolalikdagi qadrdon ko'l yodimga tushib, u tomon yo'ldim. Bir paytlar qishlog'imiz chekkasidan oqib o'tadigan kattakon anhorning atrofida qator-qator yangi uylar qad rostlabdi. Anhor kichkina ariqchaga aylanib qolibdi. Xurram muallim tayog'ini to'qillatib menga peshvoz chiqdi. Nazarimda, yoshi saksonni qoralab, qaddi xam bo'lib qolgan ustoz ham men kabi o'zining qadrdon ko'lini izlab yurganga o'xshardi. Nahotki, yillar shunchalar tez o'tib ketgan bo'lsa... Ustozga salom berib quchoq ochaman.

U kishi mungli ko'zlarini menga tikkancha:

– Shoirjon, sizmisiz?... – deydi.

– Ha, menman, ustoz, – deyman shosha-pisha.

– Ko'zlar xiralashdi. Quloqlar ham yaxshi eshitmaydi... – deydi ustoz nolib.

Ustozga bolalikda yurgan ko'chalarni, sevimli ustozlarni, qadrdon ko'lni sog'inib kelganimni aytaman.

– Qancha yillar o'tdi. Davr-u zamonlar o'zgardi. Ko'l qoldimi... – deydi ustoz boshini sarak-sarak etib...

Umrining qariyb o'ttiz yilini bolalarning ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlagan ustoz bugun keksalik gashtini surayotgan ekan...

Eh, men seni izlab yurgan bolalik! Sening nuri izlaringni izlab topilmayapman. Bu olamda mening bitmas-tuganmas dostonlarim sensan. Bepoyon dasht-u dalalarda chopqillab, qirlar bag'rida qo'y-u qo'zilarni quvlab zavq olayotgan bolalarga havasim keladi. Dunyoda ulardan baxtiyorroq inson yo'q. Ular umming eng gullagan damlari gashtini surayotgan bo'lishsa, ajabmas...

AXTAMQULI

YOZ – O'TMOODA SOZI

ENG NAMUNALI OROMGOH

Yoz fasli kelishi bilan respublikamizning so'lim maskanlarida joylashgan oromgohlar ko'plab bolajonlarni o'z bag'riga chorlaydi.

Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi Al-Xorazmiy nomli sog'lomlashtirish oromgohi ham ayni paytda bolajonlar bilan gavjum.

2013-yilda «Eng namunali oromgoh» nominatsiyasi g'olibi bo'lgan ushbu maskanda bosh yetakchi Muhiddin Tojiyev va tarbiyachilar Nargiza Qurbonova, Dilrabo Allaberganova, Sohiba Erkayeva, Hasanboy Bekchanov o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishiga munosib hissa qo'shmoqda.

Bolajonlar ishtirokida o'tkazilayotgan «Keling, tanishaylik!» davra suhbatlari, «Ijodkor yoshlar», «Marhabo, talantlar!» tanlovlari ularning iqtidorini namoyon etishga xizmat qilayotir. Bundan tashqari, haftaning shanba, yakshanba kunlari ingliz tilini o'rgatuvchi «We learn English», dushanba, seshanba, chorshanba kunlari «Yosh matematik» to'garaklari ham muntazam ishlab turibdi.

Quvonchoy ABDULLAYEVA, o'qituvchi:

– Farzandlarimiz uchun bunday shart-sharoitlar yaratilayotganidan quvonchimiz cheksiz. Ushbu oromgohda o'tkazilayotgan turli tadbirlar, sport musobaqalari bolajonlarimizning salomatligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Men ota-onalar nomidan bu yerda faoliyat olib borayotgan barcha xodimlarga, tarbiyachilarga u-shpazlarga minnatdorlik bildiraman.

Muhabbat XO'JAMURODOVA, Xorazm viloyati

«Bola boshidan», deydi dono xalqimiz. Tengdoshingiz Kenja Hamdamov ham bolaligidan rasm chizishni yoqtirardi. Murq'ak tasavvuri qog'oz va qalam nima ekanligini anglamasa-da, doim qog'lidagi qalam bilan nimalarnidir daftarga chizardi.

GO'ZALLIK OLAMNI QUTQARADI

Onasi o'g'lining qiziqishini payqab, uni Toshkentdagi Respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktabiga olib keldi. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgach, Kenjabekni ushbu maktabga rassomlik yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilishdi. U bu dargohda ustozlari Muyassar Egamovdan rasm chizish sir-asrorlarini qunt bilan o'rganib boshladi.

Kenjabek maktabda a'lochi o'quvchilar safidan joy oldi. U birinchi sinfdan to'rtinchi sinfgacha bo'lgan o'quvchilar orasidagi «Sog'lomjon – polvonjon» sport musobaqasida qatnashib, mutlaq g'oliblikni ko'lga kiritdi. Shuningdek, yosh rassom o'z ijodiy ishlari bilan Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Yaponiya va Fransiya mamlakatlarida o'tkazilgan tanlovlarda ishtirok etdi.



2011-yili Kenjabek o'zining rang-barang chizgan rasmlari bilan «Go'zallik olamni qutqaradi» tanlovda ham qatnashib, «Do'stlar» nomli kompozitsiyasi bilan birinchi o'rinni ko'lga kiritdi.

Yosh rassom yozgi ta'tilni Samarqandda o'tkazishni xush ko'radi. Chunki qadimiy shaharning boy madaniy merosini o'rganish, uni qog'ozga tushirish Kenjabekning jon-u dili. Biz yosh rassomga kelajakda baland parvozlar tilaymiz.

Xonbibi HIMMAT qizi, jurnalist

MAZMUNLI VA MAROQLI

Jizzax viloyati hokimligi va viloyat kasaba uyushma tashkilotlari birlashmasi Kengashi hamkorligida bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarida mazmunli dam olishini ta'minlash bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

«Qaldirg'och» oromgohi bu mavsumda har yilgidan-da namunali tashkil etildi. Xolmo'min Qo'ldoshev rahbarligida mazkur oromgohda dam oluvchilarning har bir kuni sermazmun o'tmoqda.

Sog'lomlashtirish oromgohida «Avangard», «Nihol», «Yulduzcha» nomli guruhlar tashkil etilib, bolalarning yozgi ta'til kunlarini maroqli o'tkazish uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan. Sport yo'riqchisi Baxtiyor Yoqubov boshchiligidagi tarbiyalanuvchilar an'anaviy o'yinlardan tashqari, «Tortishmashoq», «Kim chaqqon?», «Yelkada kurash» kabi milliy o'yinlar, oromgoh yo'lkalari bo'ylab tez yurish va yugurish mashqlarini bajarishmoqda.

Shuningdek, Farhod Abdunazarov rahbarligidagi «Kamalak» va Abdug'affor Abdullayev boshchiligidagi «Nihol» nomli sog'lomlashtirish oromgohlarida dam oluvchilar Sangzor daryosiga tutash joydagi g'orda bo'lishib, Kashshof qishlog'idagi muqaddas qadamjolarini ziyorat qilishdi va boshqa diqqatga sazovor joylarga sayohat uyushtirishdi. Bu esa bolajonlarning yurtimiz tabiatiga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish barobarida milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga o'rgatadi.

Abdulla SAIDOV, Jizzax viloyati



Poytaxtimizdagi Kamolon mahallasida joylashgan 567-maktabgacha ta'lim muassasasining yonidan o'tar ekansiz, mo'jazgina binoda bolajonlarning ingliz tilida jo'r bo'lib, harf o'rganayotganini eshitasiz.

yangicha usul bolajonlarning tilni tez va oson o'zlashtirishlarida ayni muddao bo'lmoqda. Shuningdek, bu yerda ular sportning badiiy

YOSHLIKDA OLINGAN BILIM...

Beixtiyor to'xtaysiz va yaxshilab quloq tutasiz: A, B, S, D, E... Ularning burro talaffuzidan xursand bo'lasiz. Boisi, kichkintoylarning tili ancha kelishib qolgan. Hatto katta ekranda birin-ketin ko'rinish berayotgan daftar, qalam va turli mevalarning rasmiga qarab, inglizcha nomlanishini ham aytib berishmoqda. Bu, bejiz emas.

Darhaqiqat, muassasada Prezidentimizning «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroridan so'ng xorijiy tillarni puxta o'rganish yo'lga qo'yildi. Ya'ni, ixtisoslashgan to'garaklar tashkil etilib, ular kerakli o'quv-ko'rgazmali qurollar va axborot texnologiyalari bilan jihozlandi. Bu esa darslarni turli o'yinlar, multfilmlar asosida o'tish imkonini bermoqda. Albatta, bu



gimnastika, futbol, shaxmat, shashka turlari bilan muntazam shug'ullanishadi. Tez-tez musobaqalar uyushtirilib, epchil guruhlar rag'batlantirilib boriladi.



– Farzandlarimizga ko'rsatilayotgan e'tibor va rag'bat natijasi tezda ko'zga tashlanmoqda, – deydi ta'lim muassasasi rahbari Mastura Mirsoatova. – Mana, yaqinda «Mening shahrim» mavzusida rasmlar ko'rik-tanlovi o'tkazdik. Murg'ak qalb egalari ishlarini tomosha qilib, o'ziga xos beg'uborlik olamiga sayr ayladik, go'yo.

Bir so'z bilan aytganda, muassasada amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar kelajak vorislarining har jihatdan yetuk bo'lib kamol topishlariga xizmat qilmoqda.

Dilmurod SODIQOV

SUMMER VACATION (Yozgi ta'til)

Dear pupils you have already began your summer vacation. As you have, Anvar also in holiday and he wants to spend his summer holiday in his grandmother's in the mountain. You should find what he wants to take with him to his grandmother.



O'zDJTU talabasi Dinara SHAKIROVA tayyorladi


Puzzles (Topishmoqlar)

Do you know the names of these things in the picture?

When it falls in the sky,
Field and uploads shall laughter.
(U yog'ganda dala-qir, kuladi qiqir-qiqir).



It has a tail, it isn't horse,
It has wings but it isn't bird.
(Dumi bor-u ot emas, qanoti bor, qush emas).



Jizzax shahridagi 2-akademik litseyining 2-bosqich o'quvchisi Zilola JAMOLOVA tarjimai

Madina FAYZULLAYEVA, Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi

Kitobingizni o'qidik

Taniqli yozuvchilarimizdan biri: «Kitobxon asarni o'qiyotgan chog'ida jilmaysa, bilingki, yozuvchi ham o'sha satrlarni bitayotgan mahal zavqlanib, kulib yozgan. Kitobxon iztirobga tushib, beixtiyor yig'lab yuborgan joyini esa adib ham yig'lab-yig'lab yozgan», degan edi.

BUYUKLAR IBRATI - AVLODLARGA SHON

Tarixiy asarlar ustasi, yozuvchi To'liqin Hayitning «Bahouddin Naqshband yoxud Buroq vodiysi qissasi» romanini qo'limga olganimda, beixtiyor yuqoridagi satrlar yodimga tushdi. Adib Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyatini yoritib, xalqimizning mo'g'ul istilos davrida chekkan azob-uqubatlari, yurtparvar insonlarning milliy ozodlik yo'lida olib borgan kurashlarini ishonarli tarzda tasvirlagan. Asar davomida yurt osmonida hurriyat quyoshi porlab, Sobihqiron Amir Temur saltanatining paydo bo'lishi va mustahkamlanishi o'quvchi qalbidagi iliqlik uyg'otadi. Roman yetti bobga ajratilib, bu boblar «vodiysi» deb ataladi. Yettilik ham bejiz tanlanmagan. Hafta – yetti kun. Kamalak yetti rangda tovlanadi. Buxoro zaminida esa



naqshbandiya silsilasining ketma-ket halqalarini tashkil etadigan yetti pir – Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif Revgariy, Xoja Anjirfag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Bobo Samosiy, Sayyid Mir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshband yashab o'tishgan. Romanda har bir vodiysi yettita faslga bo'linib, kichkina sarlavhalar qo'yilgan. Yozuvchining ikki buyuk ajdodimiz Xoja Bahouddin va Amir Temurni Buxoro Arkida uchrashtirishi voqealar rivojini yuqori pardalarga ko'targan. Hazrat ham Sobihqironni qo'llab-quvvatlab, xalqni unga ergashishga da'vat etadi. Uning tarbiyasini olgan Bahodirbek, cho'pon malika – Dildorbegim Amir Temurning sodiq lashkari sifatida betimsol jasorat namunalari ko'rsatadilar. Mamlakatni bosib olgan chingizlilar bilan

mardonavor kurash sahnalari, ayniqsa, Turon elida erksevarlikda ayollar ham erkaklardan qolishmasligi, cho'pon malikaning qahramonliklari kishida ifitxortuyg'usini uyg'otadi.

Shu bilan birga, Xoja Bahouddin hazratlarining ilmga, hunar o'rganishga, og'ir paytda yurtni tashlab ketmasdan, uning koriga yarash uchun kamarbasta bo'lishga da'vat etishlari asarning asosiy g'oyalariidan biriga aylangan.

Roman nihoyalani borgan sari dilingiz ravshan tortib boradi. Yurt ozod bo'ldi, mamlakatda obodonlashtirish ishlari avjida. Yosh o'spirin boshida tilla to'la lagan bilan yurtning bu boshidan u boshiga qarab piyoda yo'lga chiqadi. Bola manzilga yetguncha balog'atga yetadi. Ammo boshidagi tillalarga birov daxl qilmaydi. Sobihqiron Amir Temur orzu qilgan qudratli davlat barpo etildi. Bugungi emin-erkin kunlarimiz ham aslida, ana shu buyuk ajdodlarimizdan meros ekanligini his qilib, ulug'qadriyatlar uchun qayta-qayta shukronalar aytasiz.

Muallifning ta'kidlashicha, u bu asar ustida yigirma olti yil ishlagan. Buyuk zotlar haqida so'z aytish mas'uliyati adibni hamisha hushyorlikka chorlagan. Naqshband hazratlarining ibratli hayot yo'li bugun har birimiz, ayniqsa, yosh avlod uchun katta hayot maktabi ekanligi yozuvchiga dadillik va quvvat bag'ishlagan bo'lsa, ne ajab?! Eng quvonarli, farzandlarimiz ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiluvchi yana bir buyuk asar dunyoga keldi. U hammamiz uchun muborak bo'lsin!

Yusuf OG'AY



MO'TABAR ONA

Tog'-u toshlar ichra durdona, Siz o'zingiz tanho, yagona. Sirlashamiz mudom pinhona, Muqaddassiz, mo'tabar ona.

Qo'limizdan tutdingiz har on, Jasoratli qalbi pok inson. Sizga bo'lsin bu jonim qurbon, Muqaddassiz, mo'tabar ona.



Bol tomati zaboningizdan, Xabardorman har oningizdan. Ketolmayman hech yoningizdan, Muqaddassiz, mo'tabar ona.

Madinabonu ABVALIYEVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 179-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

Yayra SA'DULLAYEVA



CHIP-CHIPJON

haqida jajjigina qissa

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

– O'taqol, qo'rqma, – dedi Chipor xola.
– O'taver, bir marta ham shunday qilganman, qo'rqma, – dedi o'yilab topgan ishidan o'zi ham xursand bo'lib ketgan Do'mboqvoy.
Tugmachaoy qo'rqanidan ko'zlarini chirt yumib, Do'mboqvoyni yelkasiga oyoq qo'ydi.
– Ko'zingni ochaver, – dedi Chip-chipjon kulib.
– Ochaver, ochaver, – dedi Chipor xola.
Tugmachaoy ko'zini ochganida ariqchani narigi betiga o'tib olgan edi. U Do'mboqvoyni ustidan o'zi tushmoqchi bo'lib sakraganda, yiqilib tushdi.

Lekin u yig'lamadi. Yangi o'rtoqlari va Chipor xolaga qarab kulib qo'ydi. U o'yisini judayam sog'inib ketgandi.

- Nima qildik-a?
- Biz bilan keta qolsin, – dedi Jimitvoy, – ovqatlanardi.
- Oyisi xavotirlanadi-da, – dedi Chip-chipjon.
- Xullas, Tugmachaoy o'yisiga topshirishimiz kerak. Do'mboqvoy, sen judayam topag'onsan. Yordam berarsan.
- Chipor xolaning maslahati hammaga ma'qul tushdi.
- O'zing qaysi tomondan kelgansan, eslaysanmi?

Tugmachaoy Do'mboqvoyni gapidan darrov sergaklandi va to'g'riga qaradi. Do'mboqvoy shoshmasdan o'sha tomonga ketdi. Qolganlari ham unga ergashishdi. Yo'l-yo'lakay topgan-tutganlari bilan Tugmachaoy «mehmon» qilib borishardi. Qayrilishdan endi burilaman deganda, Do'mboqvoyni ko'zi qora duxoba ko'ylak kiyib olgan Tovuq xolaga tushib qoldi. Tovuq xolaning xayoli o'zida emas, faqat Tugmachaoyni yolvorib chaqirardi.

«Oyisi shu», dedi-yu, Do'mboqvoy suyunib ketganidan uning yoniga yugurdi. Boshqa vaqt bo'lsa, Tugmachaoyning oyisi undan cho'chib, har qalay panaga qochardi. Bu gal qo'rqmadi ham, qochmadi ham. Chunki uning xayoli Tugmachaoyda edi. Do'mboqvoy Tovuq xolaga biroz tikilib turdi-da, keyin sekin so'radi:

- Siz Tugmachaoyning...
- Gapi chala qoldi. Tovuq xolaning ranglari oqarib, «Oh, bolam», deb yubordi. Uning dag'-dag' titraganidan Do'mboqvoy ham qo'rqib ketdi.
- Xolajon, Tugmachaoy kelyapti.
- Tovuq xola qaddini ko'tardi. Ko'zleri ravshanlashdi. Ovoz qat'iyilashgandek bo'ldi.
- Qani yolg'izim?
- Hoy, Tugmachaoy. Chip-chipjon!!!
- Bir zumda hammayoq shodlikka to'lib ketdi. Tugmachaoy onasining bag'rida erkalandi. Do'mboqvoy osmonga sakradi. Chipor xola xursand edi. Ayniqsa, Tugmachaoyning onasi topilganidan Chip-chipjon xursand edi.

TONG

Chip-chipjon endi hamma jo'jalarga, Oppoq buviga, Chipor xolaga o'rganib ketdi. Ular bilan yashay boshladi. Oyoqlari ham asta-sekin baquvvatlashdi. Qanotlari o'sdi. U negadir Oppoq buvining yonida yotishni, sabr-toqat bilan tongni kutishni yaxshi ko'radi. Chunki tong o'tgach, o'rtoqlari bilan birga har xil o'yin o'ynaydi. Do'mboqvoy uni har kuni uy yonida sabsizlik bilan kutib turadi, u yoniga tushishi bilan suyunganidan shataloq otganicha bir aylanib keladi.

Chip-chipjon tong otishini yaxshi ko'radi. Chunki jajji «xo'roz»cha unga judayam mehribon bo'lib qolgan. Har tongda Chip-chipjon qaysidir o'tog'iga yaxshilik qilish orzusi bilan uyg'onadi. Ana, tong otayapti, tur, Chip-chipjon! Tura qolinglar!

(Tamom)

Poytaxtimizda shaxmat bo'yicha 12 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida o'tkazilayotgan Osiyo chempionatining rapid — tezkor shaxmat bahslarida g'olib va sovrindorlar aniqlandi.

SHAXMATCHILARIMIZ — OSIYO CHEMPIONI

Shveysarscha tizimda yetti turdan iborat bahsda o'z mahoratini namoyish etgan shaxmatchilarimiz ikkita oltin va bitta bronza medalni qo'lga kiritdi.

O'n ikki yoshgacha

bo'lgan o'g'il bolalar bahsida qatnashgan Nodirbek Yoqubboyev tojikistonlik Suhrobjon Avalboyev, hindistonlik Anand Saurabh va Srivatslav Rahul, qirg'izistonlik Ruslan Sezdebekov, mo'g'ulistonlik Otgonbayar Chinguunni mag'lubiyatga uchrattirdi.

Hindistonlik Aravind Ram va yana bir shaxmatchimiz Muhammadali Abdurahmonov bilan durang o'ynagan Nodirbek shu tariqa 6 ochko bilan birinchi o'rinni egalladi. Hindistonlik Aravind

Ram ikkinchi, mo'g'ulistonlik Yondonjams Erdemdalay uchinchi pog'onadan joy oldi.

Olti yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar bahsida yosh shaxmatchimiz Oqjol Rahmatullayev ham olti ochko jam'argan holda Osiyo chempioni bo'ldi. U yetti partiyadan iborat bahsda hindistonlik Ramdas Anand, Ramakrishnan Nikhil, mo'g'ulistonlik Batgerel Enkxzorig va Ochir-Erdene Ariunbold hamda jamoadoshi Akobir Saydaliyev ustidan g'alaba qozondi.

Sakkiz yoshgacha bo'lgan qizlar bahsida qatnashgan Omina Nazarova besh ochko bilan bronza medalini qo'lga kiritdi.



YOSH SPORTCHILAR MASKANI

Prezidentimiz tashabbusi bilan bolalar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan doimiy e'tibor navqiron avlodning har tomonlama sog'lom kamol topishida muhim omil bo'lmoqda.

Joylarda qad rostlayotgan zamonaviy sport inshootlarida sport bilan muntazam shug'ullanuvchilar safi tobora kengayib bormoqda.

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 2-Raqon bolalar va o'smirlar sport maktabida faoliyat yuritayotgan boks, badiiy gimnastika, voleybol, erkin kurash, futbol to'garaklarida 600 nafarga yaqin o'g'il-qiz bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazmoqda. Zamonaviy sharoitlarda shug'ullanayotgan maktab tarbiyalanuvchilari orasida xalqaro va mamlakat miqyosidagi musobaqalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Shoh MUHAMMAD

O'ZBEKISTON — ISTE'DODLAR MAMLAKATI

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Badiiy gimnastika Respublika ixtisoslashtirilgan Olimpiya zaxiralari bolalar va o'smirlar sport maktabida yana bir xushxabar tarqaldi.

Isroilning Ashdod shahrida badiiy gimnastika bo'yicha 9 yoshlilar o'rtasida o'tkazilgan «Ashdod Sea Cup», ya'ni «Dengiz kubogi» III xalqaro musobaqada E'zozabonu Zokirjonova 1-o'ringa sazovor bo'libdi.

Bu xabarni eshitib, biz ham E'zozabonuni ushbu ulkan g'alaba bilan qutladik va uni tahririyatimizga taklif qildik. Yosh sportchining bo'ynidagi shoda-shoda medallari-yu qo'lidagi faxriy yorliqlarini ko'rib, rosti, unga havasimiz keldi.

— O'ndan ortiq davlatlardan kelgan yosh sportchilar orasida 1-o'ringa sazovor bo'lganimdan xursandman. Faxrli o'rinni oqlash uchun doimo o'z ustimda ishlayman, izlanaman. Ustozim Irina Kudryashovaning o'gitlariga hamisha amal qilaman, — deydi poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 42-umumta'lim maktabining 2-sinfini a'lo baholarga yakunlagan E'zozabonu Zokirjonova.

Yosh sportchimiz ta'til kunlarida ingliz tilini yanada mukammal o'rganish uchun intilmoqda.

Shuningdek, rassomlik va dizayn yo'nalishlaridagi to'garaklarga qatnab, o'zining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirmoqda.

Sportsevar qizaloqning orzu-istaklari bir olam, eng avvalo, yurtimiz tinch, bolalar sog'lom bo'lsin, sportni yaxshi ko'rsin, deydi. Biz esa jajji sportchiga «Orzu-istaklaring ijobat bo'lsin», deya tilak bildirdik va sport bilan shug'ullanayotgan yigit-qizlar nafaqat jismonan, balki ma'nadan sog'lom bo'lishiga yana bir karra ishonch hosil qildik.

Bugun yurtimizda bolalar sportini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ulkan o'zgarishlardan haqli ravishda faxrlansak arziydi. Zero, sport kishiga jismoniy kuch-quvvat ulashish barobarida, uni ma'naviy yetuklikka chorlaydi.

Poytaxtimizning Mirobod

tumanidagi 14-bolalar va o'smirlar Olimpiya zaxiralari sport maktabida ayni paytda 350 nafar o'g'il-qiz sportning badiiy va sport gimnastikasi, yengil atletika, yakkakurash turlari bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. Ularga 40 nafar malakali murabbiylar jismoniy va ruhiy tayyorgarlik bo'yicha saboq berib kelayotir. Yaqinda bo'lib o'tgan nufuzli xalqaro turnir g'olibi, Osiyo chempioni Turdixon Islomova ham mazkur maskanda ta'lim olgan.

— Yetti yildan buyon sport gimnastikasi bilan shug'ullanaman, — deydi o'n ikki yoshgacha bo'lgan Abdulaziz Mirvaliyev. — Hozirdanoq respublika chempionatlarida muntazam qatnashib, sovrindorlar safidan joy olib kelyapman. Uch yil qatorasiga Germaniyada tashkil etilgan xalqaro musobaqada qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritdim. Kelajakda Olimpiada chempioni bo'lmoqchiman.

Yuzidan samimiylik ufurib turgan, g'alabaga chanqoq Abdulazizning so'zlarini shunchaki balandparvoz gaplar emasligini uning ko'zlaridan sezish qiyin emas. Zero, Abdulazizdek yoshlarning yurt bayrog'ini xalqaro sport minbarlarida yuqori ko'tarishi uchun davlatimiz tomonidan ham katta amaliy ishlar qilinmoqda. Birgina o'tgan 2013-yilda respublikamiz bo'yicha 112 ta bolalar sport obyekti va 4 ta suzish havzalarining foydalanishga topshirilgani bolalarimiz uchun unutilmas voqea bo'ldi.

Farhod ESHMO'MINOV

ZUBAYDA olgan surat



Bugungi kunda respublikamizda iste'dodli yoshlarni kashf etish, ularning qobiliyatini yuzaga chiqarish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda mahallalar qoshida sport va musiqa maktablari faoliyatining yo'lga qo'yilishi buning yorqin dalilidir.

«OVOZA» NING OVOZASI

Jahongir Tursunboyev yosh bo'lishiga qaramay, 2012-yili san'atga qiziqishi baland bolajonlarni jamlab, «Ovoza» guruhini tashkil etdi. Bugun uning ishtirokchilariga aylangan bolajonlar ichida Parizoda Xushvaqtova eng yoshi hisoblanadi. Bu qizaloqning go'zal raqslarni ijro etayotganini ko'rib, beixtiyor hayratingiz oshadi. Aka-singil Kamronbek va Kamola Kamolovalar, Nigina Rasulova hamda Sanjar Ibragimov «Ovoza»ning eng faol a'zolari sanalishadi. Guruh rahbari Jahongir aka shogirdlariga sahna madaniyati va ijro mahorati xususida saboq berishdan sira charchamaydi.



Joriy yilda Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan poytaxtimizdagi «Turkiston» san'at saroyida o'tkazilgan bayram dasturida ishtirok etgan «Ovoza» guruhi ko'pchilikning olqishiga sazovor bo'ldi. O'z chiqishlarida baxtli bolalik va yurt madhini kuylayotgan bu bolajonlar nigohida ona Vatanga muhabbat va unga munosib farzand bo'lishga intilish hissini anglash qiyin emas. Shunday ekan, «Ovoza»ning ovozi yurtimiz bo'ylab keng tarqalishiga tilakdoshmiz.

Vazira AZIMOVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
96-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

FABRIKAYMIZI

OJLAMIZ USTUNI

Dadamiz dunyodagi eng yaxshi insonlardan biri. Ularni oilamiz ustuni, uyimizning nuri, hayotimiz posboni, desak yanglishmaymiz. Biz farzandlarning ilm cho'qqilarini egallab, kelajakda yetuk insonlar bo'lib yetishishimiz uchun oilada barcha sharoitlarni yaratib berganlar. «Otalari so'zi – aqlning ko'zi», deganlaridek ular bizlarga hayot saboqlaridan dars beradilar. Fursatdan foydalanib, oila a'zolarimiz nomidan otamni tavallud topgan kunlari bilan chin qalbimizdan muborakbod etamiz. Baxtimizga doimo sog'-salomat bo'lib, kamolimizni ko'rib yursinlar!



SHOMURODXON va E'ZOZA

Ona zamin no'matlari

MING DARDGA DAVO

O'rik – tabiatning mo'jizaviy in'omi. Meva tarkibining darmondori va minerallarga boyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Ayniqsa, o'rik qon-tomir, oshqozon, ichak kasalliklarida va ortiqcha vazn bilan xastalangan bemorlar uchun koni foydadir. Shuningdek, bu meva organizmdagi moddalar almashinuvini yaxshilab, ovqat hazm qilish tizimiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir qiziq ma'lumot shuki, organizmning karotinga bo'lgan bir sutkalik talabi o'rik shariatining 150 grammidan

qondirilgan ekan. Bu degani, 150 gramm o'rik shariatini iste'mol qilish, 250 gramm jigar yegan bilan barobar. Shuningdek, o'rik kamqonlikning istalgan turida foydali hisoblanib, uni samarali davolaydi.

Aziz bolajonlar, ona zamin no'matlaridan bahramand bo'lish salomatlik uchun foydaliligini unutmang.

Manzura UBAYDULLAYEVA



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«KAPALAK» CHAYNKROSSVORDI



1. Yarmi zahar, yarmi bol.
2. Dorivor cho'l o'simligi.
3. Momaqaldiroqli yomg'irdan so'ng ko'payadi.
4. Suv guli.
5. Ertabahor ekini.
6. Qishin-yozin bir xil kiyimda.
7. Suv yo'li.
8. Sirti tayoq, ichi bo'yoq.
9. Ayollar taqinchog'i.
10. Qizlar ismi.

Anvar
MIRZAZODA,
Zangiota tumani

Qovanda qizgisi!



Aziz jajji pazandalar! Bu gal sizlarga «Tansiq taom» deb nomlangan salatni tayyorlash usulini tavsiya qilyapmiz. Ushbu salat tanangizga quvvat, kayfiyatingizga ko'tarinkilik ulashishiga shubha yo'q.

«TANSIQ TAOM» SALATI

Kerakli masalliqlar: 200 gramm qaynatilgan mol go'shti, 2 dona pomidor, 2 dona bodring, 1 bog' ko'k piyoz, 1 bosh piyoz, 3 dona sarimsoqpiyoz bo'lakchalari, 1 bog' kashnich.

Salatning qaylasi uchun: 80 gramm o'simlik yog'i, sirka, soya qaylasi, tuz.

Tayyorlanish usuli: somoncha shaklida to'g'ralgan go'sht bilan piyoz qovuriladi. So'ng pomidor bilan bodring ham yirik somoncha shaklida to'g'raladi. Ko'k piyoz va kashnich kertiladi, sarimsoqpiyoz qirg'ichdan o'tkaziladi. Barcha masalliqlar soyali qayla bilan aralashtiriladi. Salatga qizil qalampir ham qo'shib yuborilsa, yanada xushxo'r bo'ladi. Yoqimli ishtaha!



NARGIZA tayyorladi

30-iyun 2014

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Navbatchi
muharrir
Sayyora
QODIROVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'gli

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 51210
Buyurtma – S 279

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Tahrir Hay'ati:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Feruz JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fond.